

3/2024,
may-
iyun
(№ 00071)



AKTIVLAR BO‘YICHA ZAHIRALARNI SHAKLLANTIRISH HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: fabduvaxidov206@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss3/i3

Annotatsiya

Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi hisobini to‘g‘ri shakllantirish masalalari haqida fikr-mulohaza berilgan. Shuningdek, ularni hisobini takomillashtirish bo‘yicha nazariy-ilmiy va amaliy ahamiyatga molik taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: zararlarni qoplash zaxirasi, zararlarni baholash, debitorlik qarzi, olinadigan schyotlar, aktivlar, buxgalteriya balansi, foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan hisobot.

УЧЕТ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЗЕРВОВ ПО АКТИВАМ И ЕГО СОВЕРЩЕНСТВОВАНИЕ

Абдувахидов Фархад Туйчиевич

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация

В статье представлено мнение по вопросам правильного формирования резерва на возмещение убытков случай возможных потерь по активам хозяйствующих субъектов. Также разработаны предложения и рекомендации, имеющие теоретико-научное и практическое значение по совершенствованию их учета.

Ключевые слова: резерв для покрытия убытков, оценка убытков, дебиторская задолженность, счета к получению, активы, баланс, прибыль или убытки и другие сводные отчеты.

ACCOUNTING FOR THE FORMATION OF RESERVES FOR ASSETS AND ITS IMPROVEMENT

Abduvakhidov Farhad Tuychievich

Tashkent State University of Economics

Abstract

The article presents an opinion on the correct formation of a reserve for compensation of losses in the event of possible losses on the assets of business entities. Proposals and recommendations have also been developed that have theoretical, scientific and practical significance for improving their accounting.

Key words: loss reserve, loss assessment, accounts receivable, accounts receivable, assets, balance sheet, profit or loss and other summary reports.

Kirish

Raqamli iqtisodiyot sharoitida Bugungi kunda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonida buxgalteriya (moliyaviy) hisobini isloh qilish jarayoniga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2016-yilning 13-aprelida “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunlarning yangi tahriri¹ qabul qilindi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga (IAS) asoslangan holda Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (1998-2016-yillar) ishlab chiqildi.

So‘nggi yillarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli², 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-sonli³, 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-sonli⁴, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonlari⁵, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli qarorlari⁶ qabul qilindi. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida islohotlar boshlangan davrdan buyon o‘tgan 20 yildan ortiq davr davomida jahon iqtisodiyoti kamida ikkita moliyaviy-iqtisodiy inqirozning boshdan kechirganligi natijasida xalqaro hisob standartlarida ham tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Biroq, mazkur o‘zgarishlar buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirishda baxs-munozarali masalalar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu o‘z navbatida, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IAS, IFRS) asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Xususan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar bo‘yicha xazinalarni shakllantirish va uni hisob tizimida to‘g‘ri aks ettirish bugungi kunda dolzarb va baxs-munozarali masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar hisobini tashkil qilishda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot hamda o‘quv adabiyotlarida turlicha yondoshuvlarni ko‘rish mumkin. Xususan:

A. D. Alikina tomonidan “Debitorlik qarzi – bu korxonaga jismoniy yoki yuridik shaxslardan o‘zaro bir-biri bilan munosabatlarida yuzaga keladigan korxonalar foydasiga hisoblanadigan qarzlari summasidir. Odatda bunday qarzlarni kreditga sotish hisobidan yuzaga keladi. Debitorlik qarzlari summasining kreditorlik qarzlari summasidan oshishi tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Korxonalar buxgalteriya hisobida dargumon debitorlik qarzlari kontragent tomonidan to‘langunga qadar yoki dargumon qarz sifatida hisobdan chiqarilgunga qadar hisobda turadi” ta‘rif beriladi:

F.P.Azimova (2023) debitorlik va kreditorlik qarzlarning hisobot davrida yoki oldingi davrlarda vujudga kelgan qarzlari hamda ularning qoplanishi, iqtisodiy nafning kamayishi, ya‘ni mavjud aktivlarning kamayishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bergan. Dargumon qarzlarni qaytarilmaslik riski ehtimollik asosida baholash lozimligi bo‘yicha fikr bildirib, ularni harakatini alohida schyotlarda yuritish bo‘yicha taklif bergan.

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” Qonuni. (yangi tahriri). –T.: 13.04.2016 y, O‘RQ-404-son

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015-yildagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4720-son farmoni

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017-yildagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF 4947-son farmoni

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.09.2018-yildagi “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini iinovatsion rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida” PF-5544-son farmoni

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son farmoni

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 24.02.2020-yildagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4611-son qarori

B.J.Xakimov, R.X.Qodirovlar (2018) Buxgalteriya balansida debitorlik qarzlari nomlanishi hamda ularni aks ettirish tartiblari haqida fikr yuritib, mavjud kamchiliklar ko'rsatib berilgan. Debitorlik qarzlari moliyaviy hisobot shaklida aks ettirishga oid ahamiyatli takliflar bildirgan.

M. A. Nabiyev, N.Nosirovlar (2023) avtosanoat korxonalarida xaridorlar bilan xisob-kitoblar xisobini yuritish bo'yicha mullif tomonidan debitorlik qarzlarni moliyaviy aktiv sifatida tavsiflash va soxadagi dolzarb muammolarni bartaraf qilish bo'yicha bir nechta samarali va ilmiy asoslangan usullar taklif qilgan.

B. A.Xasanov va boshqalar (2021) belgilangan muddatda qoplanmagan va tegishli kafolatlar (garov, kafillik, bank kafolati) bilan ta'minlanmagan korxonaning debitorlik qarzi dargumon qarz sifatida tan olinadi. Agar tashkilotlar hisob siyosatida dargumon qarzlari bo'yicha rezerv yaratilishi nazarda tutilgan hollarda, rezerv tashkil qilishlari mumkin va bu summani moliyaviy natijalarda hisobga oladilar.

K.B.Urazov, M.E.Po'latovlar (2020) “shubhali debitorlik qarzlari deganda, odatda, inqirozga uchragan, faoliyatini to'xtatib qo'ygan yoki umuman yopilib ketgan, katta miqdorda kreditorlik qarzlarga ega bo'lgan, to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan, faoliyat uchun sud va prokuratura organlari oldida javob berayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning korxonada oldidagi qarzlari tushuniladi. Shubhali qarzlari sud organlari orqali undiriladi, undirish imkoniyati bo'lmaganda korxonaning zarariga olib boriladi” deb hisoblaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini to'g'ri shakllantirish va uni takomillashtirish maqsadida tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, aniq vazifalar belgilab olingan. Ilmiy maqolada guruhlash, taqqoslash, qiyosiy tahlil, ilmiy mushohada qilish, tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar bo'yicha zahiralari hisobini moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ularda amalga oshirilgan jarayonlar natijasida olinishi lozim bo'lgan mablag'lar turli sabablarga ko'ra, o'z vaqtida olinmasligi yoki kechiktirilishi holatlari mavjud. Bunday holatlarda ushbu olinadigan mablag'lar hisobot oyida dargumon qarzlari sifatida hisobga olinadi va 21-son BHMSga muvofiq 4910 “Dargumon qarzlari bo'yicha zahira k/a” schyotida zaxira shakllantiriladi.

Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning aktivlar bo'yicha olinishi lozim bo'lgan qarzlari summasiga tashkil qilingan zaxira summasi 9430- “Boshqa operatsion xarajatlar” schyotiga olib boriladi. Belgilangan muddatda to'lanmagan va kafolatlar bilan ta'minlanmagan subyektning ushbu qarzlari dargumon qarz sifatida tan olinadi.

Zahira hajmi har bir dargumon qarz bo'yicha alohida qarzdorning moliyaviy ahvoli (to'lov qobiliyati) va qarz summasini to'liq yoki qisman to'lash ehtimolini baholash asosida aniqlanadi.

Agar shubhali qarz bo'yicha zahira tashkil etilgan yildan keyingi yilning oxirigacha ushbu zahiraning ma'lum bir qismi ishlatilmasa, u holda ishlatilmagan summa tegishli yilning foydasiga qo'shiladi va foyda solig'ini hisoblashda soliq bazasiga qo'shilmaydi.

Xo‘jalikda dargumon qarzi sifatida tan olingan qarzlarni qoplab berilganda, dargumon qarzlarni bo‘yicha zahira schyotidan hisobdan chiqarilishi, Dt 4910 “Dargumon qarzlarni bo‘yicha zahira k/a” schyoti, Kt tegishli olinadigan schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Ishlatilmay qolgan dargumon qarzlarni bo‘yicha zahira summasi foyda hisobiga o‘tkazilganda, Dt 4910 “Dargumon qarzlarni bo‘yicha zahira k/a” schyotining debetida va Kt 9390 “Boshqa operatsion daromadlar” schyotida aks ettiriladi.

Yuqoridagi holatlardan ko‘rish mumkinki, shakllantirilgan zahira faqat 9430- “Boshqa operatsion xarajatlar” schyotga olib borilgan. Bu schyot davr xarajatlari tarkibiga kirib, hisobot oyining oxirida 9910 –“Yakuniy moliyaviy natija” schyotiga hisobdan chiqariladi. Bu yerda asosiy faoliyat va moliyaviy faoliyat bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholashni o‘zida ifoda etmaydi.

Shu boisdan, moliyaviy hisobotni xalqar standartlariga muvofiq, xo‘jalik yurituvchi subyektlar aktivlari bo‘yicha zahirani shakllantirish metodikasi yoki ichki me‘yoriy hujjat ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Fikrimizcha, aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosatida yoki ichki me‘yoriy hujjatlarida o‘z aksini topish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu hujjatlarga muvofiq, xo‘jalik yurituvchi subyekt jami aktivlarining qiymatiga nisbatan:

“standart” deb, tasniflanganda 0 foiz;

“substandart” deb, tasniflanganda 10 foiz;

“qoniqarsiz” deb, tasniflanganda 25 foiz;

“shubhali” deb, tasniflanganda 50 foiz;

“umidsiz” deb, tasniflanganda 100 foiz miqdorda aktivlar hisobidan zaxira shakllantirishi o‘rinli bo‘lardi.

Bunday zaxiralarni shakllantirishda 36-son Aktivlarning qadrsizlanishi BHXS va 13-son Haqqoniy qiymatni baholash MHXSga muvofiq, tartibga solish lozim.

36-son Aktivlarning qadrsizlanishi MHXSga (2013) muvofiq, “.... faqat va faqat agar aktivning qoplanadigan qiymati uning balans qiymatidan kam bo‘lsa, aktivning balans qiymati uning qoplanadigan qiymatiga qadar kamaytirilishi lozim. Bunday kamayish qadrsizlanishdan zarar hisoblanadi. Qayta baholanmagan aktiv bo‘yicha qadrsizlanishdan zarar foyda yoki zarar tarkibida tan olinadi. Lekin, qayta baholangan aktiv bo‘yicha qadrsizlanishdan zarar qayta baholash natijasida qiymatning o‘sishi summasidan oshmaydigan darajada boshqa umumlashgan daromadda tan olinadi. Bunday qayta baholangan aktiv bo‘yicha qadrsizlanishdan zarar ushbu aktiv bo‘yicha qayta baholash natijasida qiymatning o‘sishini kamaytiradi.

Agar qadrsizlanishdan zararining hisob bahosi u bilan bog‘liq aktivning balans qiymatidan katta bo‘lsa, faqat va faqat agar u boshqa standart orqali talab etilsa, tashkilot majburiyatni tan olishi lozim. Agar qadrsizlanishdan zarar tan olinsa, har qanday tegishli kechiktirilgan soliq aktivlari yoki majburiyatlari 12-son BHXSga muvofiq, aktivning o‘zgartirilgan balans qiymatini uning soliq bazasi bilan taqqoslash orqali aniqlanadi”⁷ deb belgilab qo‘yilgan.

Demak, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar bo‘yicha zahira shakllantirayotgan vaqtda balansda aks ettirilishi nuqtayi nazardan yondoshilgan holda amalga oshirilishi o‘rinli

bo'lar. Bunda, aktivlar bo'yicha zahira shakllantirayotgan vaqtda ularni hisobga olishda aktivlarning xususiyatlarini inobatga olgan holda, alohida 21-son BHMSga muvofiq, quyidagi schyotlarni ochishni tavsiya etamiz.

1-jadval

Aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi hisobini yuritish uchun tavsiya etilayotgan schyotlar tizimi⁸

Amaldagi 21-son BHMS bo'yicha		Schyotlar tarkibida tavsiya etilayotgan	
Schyot t/r	Schyotni nomi	Schyot t/r	Schyotni nomi
0310	Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar	0399	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi — moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar (kontr-aktiv)
0400	Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar	0499	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi — o'rnatish va yaratish jarayonidagi nomoddiy aktivlar (kontr-aktiv)
0600	Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar	0699	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi — uzoq muddatli investitsiyalar (kontr-aktiv)
0700	O'rnatiladigan asbob-uskunalar hisobga oluvchi schyotlar	0799	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi — o'rnatiladigan asbob-uskunalar (kontr-aktiv)
0800	Kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schyotlar	0899	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi — kapital qo'yilmalar (kontr-aktiv)
0900	Uzoq muddatli debitorlik qarzlari va kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar	0999	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi — uzoq muddatli debitorlik qarzlari va kechiktirilgan xarajatlarni (kontr-aktiv)
1500	Materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlar	1599	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi — uzoq materiallarni tayyorlash va xarid qilish (kontr-aktiv)
2800	Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar	2899	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi - tayyor mahsulotlar (kontr-aktiv)
2900	Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar	2999	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi –tovarlar (kontr-aktiv)
4000	Olinadigan schyotlar	4099	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi - olinadigan schyotlar (kontr-aktiv)
4100	Ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar	4199	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi - ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar (kontr-aktiv)

Amaldagi 21-son BHMS bo'yicha		Schyotlar tarkibida tavsiya etilayotgan	
Schyot t/r	Schyotni nomi	Schyot t/r	Schyotni nomi
4200	Xodimlarga berilgan avanslarni hisobga oluvchi schyotlar	4299	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi - xodimlarga berilgan avanslar (kontr-aktiv)
4300	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan avanslarni hisobga oluvchi schyotlar	4399	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi - mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan avanslar (kontr-aktiv)
4700	Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzini hisobga oluvchi schyotlar	4799	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi - xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (kontr-aktiv)
4800	Turli debitorlar qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar	4899	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi - turli debitorlik qarzlari (kontr-aktiv)
5800	Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar	5899	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi - qisqa muddatli investitsiyalar (kontr-aktiv)
9100	Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat) larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlar	9199	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash - sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat) larning tannarxi
9400	Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar	9499	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash - davr xarajatlari
9600	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar	9699	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash - moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari
007	To'lashga qobiliyatsiz debitorlarning zararga o'tkazilib hisobdan chiqarilgan qarzi	017	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash – aktivlarni turi bo'yicha

Ushbu tavsiya etilayotgan schyotlar buxgalteriya hisobida aks ettirilishi bo'yicha fikr yuritamiz.

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi shakllantirilganda, moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar tarkibida ochilgan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashni (faoliyat turi bo'yicha) hisobga oluvchi tegishli hisobvaraqlarga hisobga olish lozim. Bunda,

Dt 9199, 9499, 9699 schyotlari;

Kt 0399, 0499, 0699, 0799, 0899, 0999, 1599, 2899, 2999, 4099, 4199, 4299, 4399, 4499, 4599, 4799, 4899, 5899 schyotlar.

Ushbu o'tkazma har bir faoliyat turi (asosiy faoliyat, umumxo'jalik faoliyati va moliyaviy faoliyat) dan kelib chiqib, aktivlar bo'yicha zahiraning shakllantirilganini va schyotlar tizimida joylashuvining soddaligi, hisob tizimini yuritishda qullaylik yaratilishiga olib keladi. Shuningdek, foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad hisobotini tuzishda 9199, 9499, 9699 schyotlar kontr-aktiv xususiyati inobatga olinib, tannarx, davr xarajati va moliyaviy faoliyat xarajatlaridan chegirib tashlanishi lozim.

2. Bir vaqtda ushbu zahiralarni hisobga olish xo‘jalikning hisob siyosati (ichki me‘yoriy hujjatlari) ga muvofiq, balansdan tashqari schyotlar tarkibida 017- Ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash – aktivlarni turi bo‘yicha” hisobvarag‘ini ochish va uni debetida hisobga olish lozim.

Dt 017 schyot. Ushbu schyot aynan aktivlar bo‘yicha yaratilgan zaxiraning qiymatini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi va uni muddatini belgilash xo‘jalik tomonidan mustaqil belgilanishi mumkin.

3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, agar kelgusi hisobot davrida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar bo‘yicha dargumon qarzarlar qoplab berilganda, yuqoridagi ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholashni hisobga oluvchi tegishli hisobvaraqlarga quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari bilan rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir:

Dt 0399, 0499, 0699, 0799, 0899, 0999, 1599, 2899, 2999, 4099, 4199, 4299, 4399, 4499, 4599, 4799, 4899, 5899 schyotlar;

Kt 9199, 9499, 9699 schyotlar.

Ushbu o‘tkazma o‘tgan hisobot davrlarida tashkil qilingan zahiralari 9390-“Boshqa operatsion daromad” schyotiga emas, balki uni teskari yozuv asosida zahirani “nol” na tenglashtiriladi.

4. Bir vaqtda qoplangan aktivlarni nazoratini balansdan tashqari schyotlar tarkibida 017- Ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash – aktivlarni turi bo‘yicha” hisobvarag‘idan hisobdan chiqarish lozim.

Kt 017 schyot. Natijada buxgalteriya hisobi nazoratdan chiqariladi.

Xulosa va takliflar

Shu boisdan, moliyaviy hisobotni xalqar standartlariga muvofiq, xo‘jalik yurituvchi subyektlar aktivlari bo‘yicha zahirani shakllantirish va ularning hisobini takomillashtirish yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi shakllantirish jami aktivlarga nisbatan ichki me‘yoriy hujjat ishlab chiqish va unga nisbatan aktivlarni asosida “standart”, “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb, tasniflash maqsadga muvofiqdir;

2. Ushbu tasniflangan aktivlarni hisobga olishda 21-BHMS tarkibida aktivlarni turlari bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi - (kontr-aktiv) schyotini ochish tavsiya etildi;

3. Bir vaqtda ushbu ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi bo‘yicha tashkil qilingan mablag‘lar hisobini nazorat qilish maqsadida 21-BHMS tarkibida balansdan tashqari schyotlar tarkibida 017- Ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash – aktivlarni turi bo‘yicha” hisobvarag‘ini ochish o‘rinli bo‘lardi.

4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi - (kontr-aktiv) schyotida mablag‘lar foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad hisobotini tuzishda faoliyat turlariga nisbatan chegirib tashlanishi o‘rinli deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarimiz xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasini shakllantirish va ularning hisobini to‘g‘ri tashkil qilishga xizmat qiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azimova B.J. (2023) Yangi O‘zbekistonda debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobi va uni takomillashtirish. Iqtisodiyot va ta‘lim / 2023-yil 6-son.

2. Xakimov B.J., Qodirov R.X. (2018) Buxgalteriya balansida debitor qarzlari aks ettirish tartibidagi muammolar. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr, 2018-yil

3. Nabiyev M.A., Nosirov N. (2023) Avtosanoat korxonalarida xaridorlar bilan hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish. Vol. 35 (2023): Miasto Przyszłości. Impact Factor: 9.2. ISSN-L: 2544-980X.

4. Xasanov B. A., Xashimov A.A., Muxametov A.B., Abduvohidov A.A. /Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T/: Iqtisodiyot. –T.: 2021, 934 bet.

5. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020, 558 bet.

6. 36-son Aktivlarning qadrsizlanishi MHXSga (2013).
<https://www.iasplus.com/en/standards/ias/ias36>